

YOSH OILALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muhiddinova Nafisa Safaraliyevna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

nafisaabdukadirova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11260356>

Annotatsiya. *Yosh oilada munosabatlarni mustahkamlash muhim, chunki dunyodagi sharoitlar o'zgargan sari, nikoh munosabatlari ham o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu maqolada biz yoshlarni nikohga, oilaviy hayotga tayyorlash masalasini ko'rib chiqamiz. Oila jamiyatning birligi ekan, davlat oila manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy organdir. Lekin har bir oila o'ziga xos xususiyatlarga, o'ziga xos munosabatlar va qadriyatlarga ega. Yosh oila individual yo'naltirilgan shaxslardan yaratilgani uchun maxsus e'tibor talab qiladi. Har bir yosh oilada farovonlik uchun o'zaro tushunish muhim. Nikoh munosabatlari yangi turmush qurganlarning individual xususiyatlariga, ham ijtimoiy xususiyatlariga, tajriba, ya'ni turmush qurishga tayyorligiga bog'liq. Yangi turmush qurganlarning oilaviy hayoti har xil bo'ladi. Ular tajriba, ya'ni turmush qurishga tayyorligi kabi farqlari bilan belgilanadi. Moslashish qobiliyati, istaklarni hisobga olish kabi xususiyatlar oilani mustahkam o'rnatish uchun yetakchi imkoniyatlar hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *oila, nikoh, er-xotin, tarbiya, konflikt.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF YOUNG FAMILIES

Abstract. *Strengthening relationships in a young family is important because a conditions in the world change, marital relationships also undergo transformations. couple In this article we propose to consider the issue of preparing young people for marriage, to building family life. Since the family is the unit of society, The state is the main body protecting the interests of the family. But every family has its own characteristics, with its own relationships and values. Requires special attention a young family that is created from individually focused individuals. Their unification is a condition that directs family life into the general channel, but not Every young family can have prosperity and understanding. Marital relations newlyweds depends both on the individual characteristics of the newlyweds and on the social experience, i.e. from readiness for marriage. The family life of newlyweds is subject to various influences. Folk traditions, life rules of parents, expectations of spouses determined by their differences. Ability to adapt, take into account desires as their own and others are considered the leading opportunities for establishing family relations.*

Key words: *family, marriage, couple, education, conflict, scientific.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОЛОДЫХ СЕМЕЙ

Аннотация. *Укрепление отношений в молодой семье актуально тем, что с изменением условий в мире подвергаются преобразованиям и отношения в супружеской паре. В данной статье мы предлагаем рассмотреть вопрос подготовки молодых людей к браку, к построениям семейной жизни. Так как семья является ячейкой общества, государство является основным органом, защищающий интересы семьи. Но каждая семья имеет свои особенности, со своими отношениями и ценностями. Особое внимание требует молодая семья, которая создается из индивидуально направленных личностей. Их объединение является условием, направляющим в общее русло семейной жизни, но не у*

каждой молодой семье может быть благополучие и понимание. Супружеские отношения молодоженов зависят как от индивидуальных особенностей молодых, так и от социального опыта, т.е. от готовности к браку. Семейная жизнь молодоженов подвергается различным влияниям. Народные традиции, правила жизнедеятельности родителей, ожидание супругов определяются своими отличиями. Умение приспособливаться, учитывать желания как своих, так и других считаются ведущими возможностями налаживания семейных отношений.

Ключевые слова: семья, брак, пара, воспитание, конфликт.

Davlat siyosatining ijtimoiy-psixologik yo‘nalishini kuchaytirish davlatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar tizimi paydo bo‘lganda ro‘y beradi. Davlat bilan birgalikda oila ham o‘zgaradi.

Turmush o‘rtoqlarning shaxsiyatiga, shuningdek, ularning munosabatlariga talablar ham o‘zgarib boradi. Davlatda oila siyosatini U.A.Abdullaeva, S.S.Nurova, V.U.Usenova, R.Pentonlar “Davlat oila siyosati oila va oilani mustahkamlash muammolarini tizimli hal etishga qaratilgan qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida uning manfaatlarini ta'minlash; yaratish oilaning o‘z mehnat funktsiyalarini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni himoya qilishni ta'minlash” kabilarni o‘rgangan. [8, 97-b.].

V.A.Sysenko, T.M.Trapeznikova, Karter va Mak Goldringlarning psixologik tadqiqotlariga ko‘ra yosh oilalar turmushining birinchi davrida keskinligini qayd etadi. Aynan oilaviy hayotning birinchi yillari turli muammolar birga keladi, Bu yosh oilada yangi sharoitlar eski xulq-atvor normalariga zid kelganda oilaning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Oilaning, ayniqsa, yosh oilaning hayotiga atrofdagi o‘zgarishlar, turmush o‘rtoqlarning xatti-harakatlari ta'sir qiladi. Lekin har bir o‘zgarish xulq-atvorning adekvat shakllari bilan birga keladi. Agar munosabatlarda ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelsa, o‘zaro bir-birini tushunish, mavjud vaziyatlardan chiqish yo‘llarini aniqlashtirish lozim. I.F.Dementieva oiladagi nizolarni hal qilish, turmush o‘rtoqlarning individual xususiyatlarini aniqlashni hisobga olgan holda oiladagi shaxslararo munosabatlar, psixologik muammolarga alohida e’tibor beradi.

Nikohning birinchi yoki ikki yili- birinchi bosqichdir. Birinchi bosqichda oilaga aylanish, individual muloqot stereotiplarini shakllantirish, qadriyatlar tizimini uyg‘unlashtirish va umumiy mafkuraviy pozitsiyani rivojlantirish bosqichi hisoblanadi.

Bu bosqichda er-xotinlarning o‘zaro moslashuvi, oila tuzilishi, er va xotin o‘rtasidagi funktsiyalarni taqsimlash va umumiylikni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar shakllanishi, ushbu turdagi munosabatlarni izlash kabilar yuz beradi.

Oila tuzilishi deganda uning birligini ta'minlash usuli tushuniladi. A'zolar rollarning taqsimlanishi oila faoliyatining quyidagi xususiyatlarida namoyon bo‘ladi:

-har bir juft o‘z mas’uliyatini zimmasiga olishida,

-oilaviy qadriyatlar, turmush o‘rtoqlarning mavjud narsalarga bo‘lgan munosabatini inobatga olganda.

Nikohda sheriklarining o‘zaro moslashuvini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko‘rsatilgan parametrlar bo‘yicha ularning g‘oyalari muvofiqligiga erishish kerak. Yoshlar turmush qurgandan keyin birinchi intensiv muloqotga kirishishi bejiz emas. Birinchi navbatda

shirikning xohishlariga muvofiq xulq-atvorni rivojlantirish oilaviy hayotda ko'proq bir-birini adekvat idrok etishi yordam beradi.[3, 79-b.].

T.A.Gurko, yosh oilaning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda, quyidagilarni aniqlaydi:

Yosh turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlardagi qiyinchiliklar, birinchi navbatda, er va xotinning xulq-atvoriga qo'yiladigan talablarga, "O'tmishda erkak oila boshlig'i, uning boquvchisi va ijtimoiy hayotining tashuvchisi rolini o'ynaganda, er-ota va xotin-onaning an'anaviy xulq-atvor namunalari ustunlik qilgani, ayol esa uyning qo'riqchisi, uy bekasi va bolalar o'qituvchisi" sifatida ko'rilganligiga bog'liq. Ayni paytda ayollarning ishlab chiqarishga keng jalb etilishi natijasida ayolning vazifasi, faoliyati o'zgarishi, ularning bilim darajasining o'sishi, tenglik g'oyalari keng yoyishi er va xotin taxminan bir xil ijtimoiy mavqega va daromadga egaligini hamda oilada qarorlar chiqarishda juftining teng ishtirok etishini ko'rsatmoqda. Ayni paytda jamiyatda er-xotinning oilaviy roli va mas'uliyati haqidagi g'oyalar yetarli darajada ishlamaydi, bir tomondan aholining ma'lum bir qismining qadriyatiga mos ravishda oila funktsiyalarini bajarishda erkaklar va ayollar teng emas deb fikrlasa, boshqa tomondan, to'g'ridan-to'g'ri tenglik haqidagi fikr kuchaydi.[3, 86-b].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bizning mentalitetimizda yosh er-xotin ota-onalar bilan birga yashashadi, bunda boshqacha psixologik muhit bo'ladi. Kuzatuvlar shuni ta'kidlaydiki, ba'zi yoshlar ota-onalari bilan birga yashashga tayyor, chunki bunga ularning psixologik holati javob beradi.

N.F.Divitsyna ta'kidladi: ma'lum bir jamiyatning madaniyati "Har qanday holatda, ota-onasidan alohida yashash imkoniyati agar mavjud bo'lsa va yangi turmush qurganlar bunga intilmaydi, chunki odatda yosh oila ma'sulyatni o'z bo'yniga olishni istashmaydi. Ammo yangi turmush qurganlar alohida yoki birining ota-onasi bilan birga yashashlaridan qat'i nazar turmush o'rtoqlari bilan birgalikda yashash qoidalarini qurish, o'z chegaralarini belgilash, oila byudjeti haqida qaror qabul qilishni o'z ma'sulyatiga olishi zarur. Ba'zi yosh oilalarda oilani yaratishda, o'z byudjetiga ega bo'lmagan holda, to'liq ota-onalariga qaram bo'lish holatlari kuzatilmoqda.

N.V.Timoshina, T.S.Zubkovaning ilmiy tadqiqot ishlarida, shuni aniqladiki: "Yosh oilalardagi mojarolarning yana bir manbai- yosh turmush o'rtoqlar uchun rol muvofiqligiga erishishdagi qiyinchiliklar"dir.

Qadimgi davrlarda erkakning oiladagi xatti-harakatlari keskin bo'lgan, oilani tartibga solish, ayolni norozilikka olib kelmaslik uchun o'zini qanday tutish kerakligini yaxshi bilardi.

Hozirgi kunda er-xotin roli mavjud normalar bilan belgilandi. Yangi turmush qurganlar har doim ham er va xotinning roli haqidagi g'oyalarni bilishmaydi. Yosh oilalarda kuzatiladigan nizolar sezilarli darajada farq qiladi. Ularning farqlari ba'zan ko'p oilalar o'rtasidagi ajrimlarni oldini olish mumkin bo'lgan manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Yosh oilalar ko'pincha oilaviy hayotda boshqalardan namuna olish to'g'ri emasligiga ishonishadi. Lekin ota-ona bergan tarbiyasidan kelib chiqib, o'zining juftiga talablar qo'yadi. Yosh er xotini onasi oilada o'zini qanday tutganiga o'xshash xatti-harakatni kutadi. [7, 91-b].

E.M.Zuikovanning tadqiqotiga ko'ra, "Yoshlarga oilaviy hayotning muvaffaqiyati uchun psixologik yordam shartlari quyidagilardan iborat:

-psixo-ijtimoiy yordamning asosiy mazmunining yetarliligi, yosh oilani shakllantirish vazifalari va rivojlanishning har bir bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar;
-o'zaro yordam va birgalikda qarorlar qabul qilish uchun yosh oilalarni birlashtirish ularning muammolari va oilaviy hayotni tashkil etishda tajriba almashish;
-yosh oilaning ijtimoiy rivojlanishini har tomonlama monitoring qilish;
-oilaning jamiyat bilan munosabatlari, oila ichidagi va ichki munosabatlardagi ijobiy va salbiy tendentsiyalarni kuzatish,." [5, 83-bet].

Yosh oilalarni o'rganishning asosi nikoh munosabatlari kuzatishdir, bu esa oila qurishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali ta'minlanadi. Oilaviy munosabatlarni o'rnatishda yetakchi o'rinni yoshlarning turmush qurishga psixologik tayyorgarligi hisoblanadi.

Hozirgi kunda oila qurayotgan yoshlar o'zaro ma'naviy aloqa o'rnatish, qoniqarli munosabatlarni shakllantirishga yordam beradigan oilaviy qadriyatlardan xabardor bo'lishlari lozim. Afsuski, hamma ham oilaviy hayotga tayyor emas. Yosh oilalarda yangi sharoitlarga moslashish, yetakchilik masalalarini hal qilish, noto'g'ri his-tuyg'ular, empatiya yetishmasligi, uy xo'jaligini taqsimlash kabi muammolarga duch keladi.

Oilaviy hayotdagi rollarning repertuarini ikki jihatdan bayon etish mumkin: pozitsion rollar (turmush o'rtoq, ota-ona va b.) va psixologik rollar (masalan, yetakchi, mutaxassis va b.).

Har ikki pozitsiya oilaviy hayotga tayyorlashning normativini aniqlash uchun birday muhim. Pozitsion rollar kishining burchlarini, boshqa kishilar tomonidan unga bo'lgan talablarni belgilaydi. Rollarning mazkur tizimi turg'un bo'lib, unga ma'lum formallikni beradi. Psixologik rollar o'zaro faoliyatning boshqa nisbatan formal tomonini ifodalaydi. Biroq oilaviy tizimning funkcionalligini baholashda aynan mazkur rollarning egiluvchanlik darajasi (har bir oila a'zosining mazkur rollarning har birini amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarligi va imkoniyatiga ko'ra aniqlanadi) oiladagi psixologik muhitning sog'lomlik darajasini belgilaydi.

REFERENCES

1. SH. Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: Uzbekiston 2017 . 256-b
2. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: 2008 – 134-b
3. Дементьева И.Ф. Первые годы брака. Проблемы становления молодой семьи. / И.Ф. Дементьева. – М., 1991. – 112с.
4. . Зубкова Т.С. Организация и содержание работы по социальной защите женщин, детей и семьи [Текст] : учеб. пособие для студентов сред. проф. образования / Т.С. Зубкова, Н.В. Тимошина. - М.: Академия, 2004. – 224 с.
5. Зуйкова, Е.М. Молодая семья [Текст]/ Е.М. Зуйкова, Н.В. Кузнецова. - М.: Инфра-М, 2006. – 186 с.